GLOBAL MIGRATSIYA JARAYONINING TRANSMILLIYLASHTIRISH MADANIYAT MODELI BO‘YICHA KECHISH TENDENSIYALARI

N.N. Achilova
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Milliy g‘oya va falsafa kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada global migratsiya jarayonlarining “transmilliylashtirish madaniyat modeli” bo‘yicha kechishining tendension xarakteri ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilinib, ularning nazariy va amaliy yechimlari haqida bahs talab fikrlar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: globallashuv, transmilliy,migratsiya, aholi va mehnat migratsiyasi, madaniyat, differensial, integral, gorizontal, vertikal, jamiyat, sintetik falsafa.

Globallashuv jamiyat moddiy va ma’naviy hayotining barcha jabhalarini qamrab olgan ko‘p qirrali jarayon sifatida o‘zini namoyon qilmoqda. Shu sababli uning mohiyat-mazmunini ochish, keltirib chiqaruvchi foydali va zararli oqibatlarini baholash, kelajakdagi ta’qdirini bashorat qilish borasida turli soha olimlari ilmiy tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar. Natijada faylasuflar globallashuv masalasini umumplanatar hodisa sifatida tendensiyali xarakterga ega ekanligini e’tirof etmoqdalar.

Globallashuv nima, degan savolga olimlar tomonidan xilma xil keng va tor ma’noda ta’riflar berilgan va tavsiflangan. Shulardan biri professorlar J.Y.Yaxshilikov va N.E.Muhammadiyevlarning yozishicha: ”Globallashuv falsafiy ma’noda – bu jahondagi mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma’naviy-madaniy sohada o‘zaro yaqinlashuvi, yangicha sifatiy birlashuvi natijasida sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarning tez sur’atlar bilan bir mamlakat doirasidan chiqib, umumplanetar miqyosga ega bo‘lishidir” [1.B.268.]. Ushbu ta’rifdan kelib chiqqan holda, biz masalaning aholi migratsiyasi jarayonida, ya’ni ko‘chib ketganlar va ko‘chib kelganlarning qanday sharoitlarda, omillar asosida ma’naviy-madaniy jihatdan, aniqroq qilib aytganda “madaniyat moduli” bo‘yicha integrallashuv va differensiallashuvi masalalariga e’tibor qaratmoqchimiz.

Xo‘sh, migratsiya va uning mohiyati nimalarda ifodalanadi? Bu xususda davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev: ”Migratsiya jarayoni, ayniqsa, uning asosiy qismini tashkil etuvchi mehnat migratsiyasi jarayoni muayyan vaqtlarda kuchayib-pasayish tendensiyasiga ega bo‘lib, ma’lum hudud, mamlakat, mintaqa ijtimoiy hayotiga o‘zining ijobiy, salbiy, kerak bo‘lsa, siyosiy ta’sirini o‘tkazadi”[2.B.363.],-degan edi. Zero, shunday ekan migratsiya nima, u qanday fenomen degan savol tug‘iladi? Bu savolga “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da: “Migratsiya [lotincha migratio-(aholining) bir joydan boshqa joyga ko‘chishi] – aholining mamlakat doirasida bir joydan boshqa joyga yoki bir mamlakatdan boshqa mamlakatga ko‘chishi yoki ko‘chirishi”[3.B.588-589.],- degan ta’rif berilgan. Ushbu ta’rifdan kelib chiqqan holda “aholi migratsiyasi”(hayvonlar ham migratsiya jarayonlarini boshdan kechiradilar- N.N.A.) tushunchasiga ikki xil, ya’ni tor va keng ma’noda ta’rif berish mumkin. Demak, migratsiya tor ma’noda – bu aholining yashab turgan joyini qancha muddatga bo‘lishidan qat’iy nazar boshqa hududga ko‘chib o‘tishi bilan yakun topadigan jarayon, keng ma’noda esa ko‘chivchilar ko‘lami, qayta migratsiyalashuvi, uni keltirib chiqaruvchi sabablar, ko‘chivchilarning ko‘chib borgan joydagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, estetik va boshqa muhit turlari bilan bo‘ladigan integratsion yoki diferensiallashgan madaniy munosabatlari tizimidir. Migratsiya masalalari bo‘yicha tadqiqotlar olib brogan. O.D. Vorobyova: ”Migratsiya bu aholining yashash joyini doimiy yoki vaqtinchalik o‘zgartirishi bo‘lib, har qanday hududiy ko‘chib o‘tish ijobiy yoki salbiy omillar ta’sirida sodir bo‘ladi”[4.B.35.],- degan xulosaga keladi. Darhaqiqat, hech bir odam o‘zining tug‘ilgan joyini, do‘stlarini, mahalladoshlarini, mamlakatini tashlab ma’naviy-madaniy, axloqiy va estetik qadriyatlarigan voz kechib boshqa joylarga biron bir obyektiv yoki subyektiv sabablarsiz ko‘chib ketmaydi. Demak, migratsiya shunchaki aholining oddiy mexanik harakati emas, balki xalqlar bilan birga madaniy birliklar, aniqrog‘i har bir oila, elat, millat va xalqlarning urf odatlar, udumlar, qadriyatlar, til va diniy qoidalarni o‘z ichiga qamrab

oladigan xatti-harakatlar tizimidir. Aslini olganda migratsiya jahonda kechayotgan globallashuv jarayonlarining mahsuli, hosilasidir.

XXI asrda globallashuv - bu dunyoning yaxlitligi va o‘zaro bog‘liqligini mustahkamlashga qaratilgan jarayon bo‘lib, uning moddiy-texnologik tamaddun darajasida kechayotgan barcha o‘zgarishlari jamiyatning ijtimoiy-tashkiliy, g‘oyaviy-mafkuraviy va ma’naviy-madaniy darajasida aks etar ekan, u albatta, har bir insonning hayoti va ichki dunyosiga ta’sir qilishi tabiiydir.

Global migratsiya jarayonining “transmilliylashtirish madaniyat moduli” bo‘yicha kechish tendetsiyalarilariga e’tiborni qaratadigan bo‘lsak, birinchidan, globallashuv va migratsiyaning chiziqli bo‘lmagan sintez qonunlariga muvofiq rivojlanayotgan jarayon sifatida ta’sirining ko‘p vektorli ekanligini ko‘ramiz. Ular moddiy va ma’naviy qadriyatlarga asoslangan inson hayotiy yo‘nalishlarning barcha turlarini, shu jumladan turli xil madaniyatlarga mansub odamlarning ma’naviy qiyofasi va turmush tarzini ham qamrab oladi. Shunga qaramay, zamonaviy va an’anaviy tarzda shakllanib rivojlanayotgan tamaddunning falsafiy paradigmalari faqat globallashuv jarayoni bilan belgilanadi. Aksincha, bordi-yu mavjud ijtimoiy tizimga ichki va tashqi bosim qanchalik katta bo‘lsa, turli madaniyatlarda o‘z-o‘zini tashkil etish salohiyatining namoyon bo‘lishi, dunyo tamaddunining xilma-xilligini saqlab qolish istagi ham shunchalik faol bo‘ladi. Demak, mazkur tendensiyalarning bir vaqtning o‘zida rivojlanishi - integratsiya va differensiatsiyalashgan holatda "gorizontal" shaklda namoyon bo‘lib, "vertikal" tarzda universallashuv jarayonlari orqali dunyoning butun xilma-xilligini tushunib yetish va uni rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlarni ochib beradi. Bunday vaqtinchalik fazoviy munosabatlarni bog‘laydigan qadr-qiymatga asoslangan hayotiy tendensiyalar ijtimoiy-madaniy qarama-qarshiliklarning kuchayishiga olib kelishi ham mumkin.

Ikkinchidan, globallashuv va migratsiya sinergetik, ya’ni chiziqli bo‘lmagan tarzda harakat qiladi. Aytaylik, Sharq va G‘arb, Shimol va Janub mamlakatlari, ularning murakkab munosabatlar tizimidagi ishtiroki madaniyatlar, o‘z qadr-qimmati va suverenitetining zaiflashishini istisno qilgan holda, ayni vaqtda jahondagi turli xalqlarning o‘zaro bog‘liqligini tushunishni ham kuchaytiradi. Bu ular o‘rtasida beqarorlikni yengish senariylaridan biri bo‘lib, zamonaviy dunyoning dinamik muvozanatga erishishga keng yo‘l ochib beradi.

Uchinchidan, globallashuv sharoitida migratsiya masalasi ko‘chivchilar o‘rtasida etnomadaniy o‘ziga xoslik va etnomadaniy xilma-xillikning o‘zaro bog‘liqligini belgilab berishiga imkoniyat yaratib beradi. Ertami-kechmi, barcha xalqlar va madaniyatlar geosiyosiy va geoiqtisodiy o‘zgarishlarning bosimini boshdan kechirayotgan global axborot texnologiyalari oqimiga qo‘shilishga majbur bo‘ladi. Shu bilan birga, ular o‘zlarining umumiy ijtimoiy va tamadduniy xususiyatlarini hamda mahalliy madaniy o‘ziga xosligini saqlab qolishga intilib, o‘zlarining ritmini va global jarayonlarga kirish usullarini rivojlantiradilar. Demak, globallashuv sharoitida migratsiyaning birlashish va standartlashtirish tendensiyalari bosimini pasaytirish, etnik madaniyatlarning o‘ziga xosligini saqlab qolish bilan yaqinligini bartaraf etish imkoniyati ko‘p jihatdan ochiqlik va innovatsion faoliyatning o‘sishi sharoitida moslashish strategiyasining samaradorligi bilan belgilanadi. Bunda migratsiya tufayli integratsiyalashgan har bir millat madaniyatiga mos bo‘lgan dunyoqarashining o‘ziga xosligini tan olish va madaniy ahamiyatini inkor etmaslik zarur bo‘ladi.

Globallashuv sharoitida aholining keng miqyosda migratsiya jarayonlariga jalb etilishi qadriyatlar yangi ko‘lamini shakllanishiga, ta’lim-tarbiya tizimining ochiqligi va transmilliylashtirilishiga, iqtisodiy bo‘lmagan motivlar ahamiyatining oshirishi ba’zi mamlakatlarda nisbatan sekin kechishi, boshqalarida esa tezlashib borishi jahondagi ijtimoiy-madaniy dinamikaning hal qiluvchi omiliga aylandi. Bunda, bir tomondan, texnologiyalarni o‘ta tez takomillashtirish, ishlab chiqarishni demassifikatsiya va dematerializatsiya qilish jarayonini tezlashtirishga e’tibor kuchaymoqda, natijada esa bunda inson resurslarining ahamiyati ortib bormoqda. Boshqa tomondan, globallashuv jarayonining kuchli nochiziqligining ko‘rsatkichlari sifatida modernizatsiyaning turli sur’atlari zamonaviy dunyoni tamaddun va ijtimoiy mezonlarga ko‘ra taqsimlashga yordam bermoqda. Masalan, migratsiya, qashshoqlik, kasalliklar, savodsizlik, diniy ekstremizm, terrorizm global muammolarni hal qilishni talab qilmoqda.

Globallashuv va migratsiya jarayonlarining hozirgi bosqichining o‘ziga xos xususiyati aniq strategik maqsadlarga erishish uchun turli xil iqtisodiy va geosiyosiy birlashmalar, vaqtinchalik koalitsiyalar va uzoq muddatli ittifoqlarni shakllantirishga qaratilmoqda. Bunda barcha moddiy va ma’naviy ne’matlarni transmilliylashtirish va xalqarolashtirish foyda va imtiyozlar nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqilgan holda, jamiyatning madaniy hayotida etnomilliy madaniyatlar uchun salbiy oqibatlar nuqtayi nazaridan baholanadigan “ommaviy madaniyat”ni joriy qilishga urinmoqdalar.

Shunday qilib bugungi kunda har bir davlat va umuman insoniyat globallashuvning qaysi modelini rivojlantirish to‘g‘risida qaror qabul qilish vaqti keldi. Bunda bir biriga muqobil bo‘lgan variantlar - "bozor modeliga ko‘ra" globallashuv va " transmilliylashtirish madaniyat modeli”ga ko‘ra globallashuv turli maqsadlarni ko‘zlab, ma’lum xulosalar chiqarishga imkon beradi. Shunday qilib, " transmilliylashtirish madaniyat modeli”ga ko‘ra global migratsiya jarayonining asosiy maqsadi millati va yashash joyidan qat’iy nazar, odamlarga bilim va madaniyatga teng huquq berish orqali, ularning madaniy rivojlanishi va moddiy farovonligining o‘sishiga hissa qo‘shish, ayni vaqtda iqtisodiy o‘sish sharoitlar bilan ta’minlanadidagan umumiy ahamiyatga molik bo‘lgan madaniy makonni yaratishdan iborat. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, madaniyatda inson huquqlarini to‘liq amalga oshirish orqali iqtisodiy rivojlanish uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi, iqtisodiy rivojlanish esa turli madaniyatlarning konfiguratsiyasini soddalashtirish va "moslashtirish"ga olib kelmaydi. Bilaks, madaniyatning jamiyatdagi rolini oshirishga, an’analarni saqlab qolish uchun madaniy muhitni faol yangilashga sharoitlarni yaxshilashga yordam beradi, iqtisodiy rivojlanishni ta’minlaydigan innovatsion komponentlarni faollashtiradi.

Global migratsiya jarayonining “transmilliylashtirish madaniyat moduli bo‘yicha” kechish tendetsiyalarini aniqlashda tadqiqotchilar tomonidan aniqlanayotgan quyidagi holatlarning: a)modernistik badiiy madaniyat namunalari (shu jumladan ommaviy va elita; masalan, mavhum rasm yoki atonal musiqa), geografik joylashuviga (kelib chiqish joyiga) qaramay, dasturiy jihatdan milliy bo‘lmagan (kosmopolit) madaniy ishlanmalar; b)global ommaviy madaniyatga odamlarni umumiy matnlar va g‘oyalar, taniqli asarlar bilan birlashtirgan tizimi yaratish; v)bir necha darajalarda standartlashtirilgan mahsulotlar manbai bo‘lmish umumlashtirilgan insoniy qadriyatlar va manfaatlar, yagona semantik nutq va boshqalar sifatida ishlaydigan mintaqaviy, milliy va mahalliy madaniyatlarning parchalaridan tashkil topadigan sintetik madaniyat falsafasini ishlab chiqish; g) yangi gibridlar(duragaylar) - "daos madaniyati" (S. Xantington) va "intelektual ziyolilarning klub madaniyati"[5.B.8.] kabi global madaniyat namunalari yaratishga bo‘lgan urinishlarini mantiqiy jihatdan tushunib yetishga e’tiborni qaratish kerak bo‘ladi.

Hozirgi vaqtda transmilliylashtirish “madaniy tamaddun” hodisasiga aylanib, fan, ta’lim, madaniyat va san’at sohalarida xalqarolashtirish jarayonlarini chuqurlashtirmoqda. Bularga: milliy madaniyatlar makonini nafaqat sifatli ijtimoiy-iqtisodiy, balki geosiyosiy o‘zgarishlarga qaratilgan zamonaviy dunyoning integratsiya tendensiyalariga javob beradigan yangi qiymat va semantik tarkib bilan to‘ldirish jarayoni; transmilliy madaniyatning yangi turini, bir xillik va harakatchanlik bilan ajralib turadigan madaniy qatlamni shakllantirish, u asta-sekin milliy madaniyatlarda o‘sib borayotgan segmentni qamrab olish va ularning yaxlitligini o‘zgartirish; media maydonlarini yaratish va madaniy muhitni, shu jumladan audiovizual aloqaning turli shakllarini interaktiv o‘zaro ta’sirga qadar virtualizatsiya qilish orqali har bir madaniyatning axborot-kommunikatsiya maydonini kengaytirish; madaniy ahamiyatga molik bo‘lgan tovarlar va xizmatlarning xalqaro almashinuvini kengaytirish jarayoni, madaniy hayotni tashkil etishning yangi shakllarini birlashtirish; o‘zaro ta’sir jarayonlariga (davlat ma’muriy tuzilmalari vositachiligisiz) nafaqat milliy madaniyatlarni, balki mintaqalar va jamoalar madaniyatini jalb etish tug‘ilish va alohida fuqarolar, xalqaro madaniy hayotni faollashtirish; transmilliy ta’lim va fan tizimlari faoliyatini kengaytirish, ijtimoiylashtirish va professionallashtirishning belgilangan shakllarini o‘zgartirish; shaxsning madaniy o‘zgarish jarayonlariga ruhiy moslashishini, ijtimoiy harakatchanlikni ta’minlaydigan va globallashayotgan dunyoda ijtimoiy-madaniy o‘ziga xoslikning yangi turlarining asosiy tavsiflovchisi bo‘lib xizmat qiladigan shaxsiy madaniyatning yangi turini shakllantirish jarayonini kiritish mumkin.Ushbu xususiyatlarga asoslanib, transmilliylashtirish haqida gapirganda, faqat

biron bir mamlakat yoki turli jamoalarning gomogenizatsiya (yunoncha –gomogemes- bir xillik, bir tartiblilik) ga qaratilgan boshqaruv ta'sirini tan olish yoki rad etish haqiqati bilan bir xillik madaniy makonni yaratish bilan cheklanib bo'lmaydi.

Transmilliylashtirish har bir inson uchun erkinlik va madaniy makonni individuallashtirish illyuziyasini yaratadi. Shuning uchun ham bu jarayon ancha murakkab bo'lib migrantlar uning tuzog'iga tushib qolishdan ehtiyot bo'lishi, yetti o'lchab bir kesishi maqsadga muvofiqdir. Chunki, ijtimoiy-madaniy makonni transmilliylashtirish zamonaviy madaniyatning mozaik konfiguratsiyasini kuchaytiradi. Uning ana shu mozaikligi turli xil millat madaniyatlari o'rtasidagi o'zaro ta'siri natijasida migrantlar hayotining keskin o'zgarib ketishiga, ya'ni o'zligini yaxshi anglashi yoki uni asta-sekin unitishlariga olib kelishi mumkin.

Yangilanayotgan O'zbekistonda global migratsiya jarayonining " transmilliylashtirish madaniyat moduli" bo'yicha kechishi, ularning milliy manfaatlarimizga, milliy qadriyatlarimizga mos kelmaydigan tomonlarini inkor qilgan holda, o'zligimizni chuqur anglash orqali transmilliy maydonda harakat qilishimish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar:

1. Яхшиликов Ж.Я.,Муҳаммадиев Н.Э. Миллий ғоя-тараққиёт стратегияси. Монография. – Тошкент."Фан",2017. - Б.268.
2. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси.Тўлдирилган иккинчи нашри.- Тошкент"Ўзбекистон" нашриёти,2022. - Б.363.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ж.III. – Т.:"Ўзбекистон миллий энциклопедияси"Давлат илмий нашриёти,2006. - Б.588-589.
4. Воробьёва О.Д. Миграционные процессы населения: вопросы теории и государственной политики. //Проблемы правового регулирования миграционных процессов на территории Российской Федерации. / Аналитический сборник Совета Федерации ФС России-2003- № 9(202) –С. 35
5. Бергер П.Л. Культурная динамика глобализации// Многоликая глобализация:Культурное разнообразие в современном мире / Под.ред. П.Бергара и С. Хантингтона. М., 2004. – С. 8.